



Jizzax davlat  
Pedagogika  
Universiteti

TARIX FAKULTETI

# HISTORY AND SOCIETY

ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО  
общественный электронный  
Журнал

№ 1

JOURNAL  
2024



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2024-yil 1-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, tarix metodikasi

**Bosh muharrir:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD),  
dotsent.tarix fakulteti dekani

**Bosh muharrir** Pardayev A.H. JDPU, tarix, t.f.n.,  
**o‘rinbosari:** dotsent

**Mas’ul kotib:** Karimova N.I JDPU, tarix,t.f.b.f.d (PhD)

### TAHRIRIYAT A’ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
8. G‘oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), professor
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), professor
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, professor
14. Kobzeva.O.P. - tarix fanlari doktori, professor
15. G‘ofurov J.I – tarix fanlari bo‘yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o‘qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o‘qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:**

**Karimova. N.I**

## MUNDARIJA

1. **MUNDARIJA** \_\_\_\_\_ 3-4
2. **TARIX FANINI O'QITISHDA TARIXIY-BADIIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI.** Ahror Pardayev Hasanovich. Zokirova Muxlisa. \_\_\_\_\_ 5-9
3. **TURONNING BOHODIR VA DONO AYOLLARI.** Boltayev Abdurasul. Olim Mamarasulov. \_\_\_\_\_ 9-14
4. **SOHIBQIRON AMIR TEMUR VA UNING HARBIY MAHORATI.** Boltayev Abdurasul. Abdullayev Abdulaziz \_\_\_\_\_ 15-18
5. **MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX SHAHRINI ZAMONAVIY QIYOFAGA KELTIRISH.** Abdurasulova Dilbar To'raevna . Soatov Diyor \_\_\_\_\_ 19-24
6. **FRIGIYA PODSHOLIGI.** Xamrayev G'ayrat G'aniyevich. Jumaqulova Diyora Ergashboy qizi. \_\_\_\_\_ 25-29
7. **KUSHON DAVLATI TARIXI VA MADANIYATI XUSUSIDA.** O.Abdig'apparov. Nabiyeva Farmuda. \_\_\_\_\_ 29-34
8. **MISR MADANIYATINING O'ZIGA XOS JIHLTLARI.** O.Abdig'apparov. Naxalboyev Fozilbek. \_\_\_\_\_ 34-38
9. **TA'LIMGA MILLIYLIK RUHI ASOSIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH SAMARADORLIGIGA OID.** J.O.Saidov. Shukurova Maftuna Alisher qizi. \_\_\_\_\_ 38-43
10. **G'ARBIY YEVROPADA YANGI DAVR MADANIYATINING SHAKLLANISHI.** To'ychiyeva Dilnoza Ikromovna. Yo'ldoshev Bektemir Tursunboy o'g'li. \_\_\_\_\_ 44-49
11. **ABDURAHMON JEVACHI — ERK VA OZODLIK KURASHCHISI.** B.Mirkomilov. Sh.Boymatov. \_\_\_\_\_ 49-53
12. **РОЛЬ ЖЕНШИН В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (КОНЕЦ XIX И НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна. Акрамова Навбахор. \_\_\_\_\_ 53-58
13. **ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ СРЕДНЕЙ АЗИИ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА.** Каримова Наргиза Икрамовна. Бобокулова Севинч. \_\_\_\_\_ 58-64
14. **DAVLATCHILIK TARIXIMIZDA SIYOSIY TRANSFORMATSIYANING NAMOYON BO'LISHI** Jamshid.Eshboyevich. Toshboyev. Abdug'aniyev Jahongir. \_\_\_\_\_ 64-68
15. **TARIXIY ARXEOLOGIK MANBALAR VA UNING QADIM TARIXIMZDA TUTGAN O'RNI HAQIDA.**Furqat.Eshboyevich.Toshboev. R. Nosirova . \_\_\_\_\_ 69-73
16. **LARSA SHAHRI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR.** Tugalov Boburjon Baxodir o 'g'li. Karimov Boburjon Bobomurod o'g'li. \_\_\_\_\_ 73-78
17. **ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКА).** Каримова Наргиза Икрамовна, Машарипова Нодира. \_\_\_\_\_ 78-84
18. **TEMURIYLAR DAVRIDA SIYOSIY JARAYONLAR.** Burxonov Lazizjon Salimjon o'g'li. Nurullayeva Farangiz Dilshod qizi. \_\_\_\_\_ 85-89
19. **ТРАДИЦИИ И ОБЫЧАИ КАРАКАЛПАКОВ.** Каримова Наргиза Икрамовна Джумамуратова Инобат. \_\_\_\_\_ 89-93
20. **YOZMA MANBALARDA KESH VA NAXSHAB TARIXINING YORITILISHI** Jo'raqulova Nurmohi Ne'matulla qizi. Bobur Karimov. \_\_\_\_\_ 94-100
21. **KRIPTOGRAFIYA NIMA SABABDAN PAYDO BO'LDI YOXUD ILK SHIFRLASH NAMUNALARI.** Mirkomilov Baxtiyor.Axmedova Dildora Erkinjon qizi \_\_\_\_\_ 100-105

## MUSTAQILLIK YILLARIDA JIZZAX SHAHRINI ZAMONAVIY QIYOFAGA KELITIRISH.

Abdurasulova Dilbar To'raevna JDPU .  
Umumiy tarix kafedrası o'qituvchisi.  
Tarix fakulteti talabasi Soatov Diyor

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Jizzax shaharida shaharni qayta qurish ishlari olib borilayotganligi, eski shaharni zamon talablariga moslashtirish zaruriyati paydo bo'lganligi va Jizzax shahari qurilishida aholi uchun qulaylik yaratish bosh mezon ekanligi, viloyat markazida keng miq'yosda qayta qurilish ishlari olib borilayotganligi, eski shaharni qaytadan qurish hamda uni o'zgaruvchi talablarga moslashtirish zaruriyati paydo bolayotganligi, shaharni qayta qurish jamiyatini yangilash shaharsozlikni rivojlantirishning muhim ajralmas qismi bo'lgan holda shaharlarni birin-ketin yangilash yo'li bilan aholini normal ishlab chiqarish faoliyati uchun sharoit yaratishni, insonning doimiy o'sib boruvchi ma'naviy va moddiy talablarini qondirishni, aholini mehnat, turmush va dam olish sharoitlarini tubdan yaxshilash o'zining maqsadi qilib belgilanganligi aytilgan.

**Kalit so'zlar:** Shahar, qayta qurish, zamonaviy xiyobon, bunyodkorlik ishlari, musiqali favvora, bozorlar, Xotira bog'i, landshaft, uy-joylar, savdo va maishiy xizmat, zamonaviy binolar.

**Аннотация:** В этой статье говорится о том, что в годы независимости в городе Джизаке ведутся работы по реконструкции города, возникла необходимость приспособления старого города к современным требованиям и создание удобств для населения является главным критерием при строительстве города Джизака, в областном центре ведутся широкомасштабные работы по реконструкции, возникает необходимость перестройки старого города и его адаптации к меняющимся требованиям, обновление общества городского строительства является важной неотъемлемой частью развития градостроительства, с целью создания условий для нормальной производственной деятельности населения путем последовательного обновления городов, удовлетворения постоянно растущих духовных и материальных потребностей человека, улучшения условий труда, жизни и отдыха населения.

**Ключевые слова:** Город, реконструкция, современная аллея, строительные работы, музыкальный фонтан, рынки, парк памяти, ландшафт, жилье, торговля и бытовые услуги, современные здания.

**Abstract:** This article says that during the years of independence, reconstruction works were carried out in the city of Jizzakh, there was a need to adapt the old city to modern requirements and create amenities for the population is the main criterion for the construction of the city of Jizzakh, large-scale reconstruction works are underway in the regional center, there is a need to rebuild

the old city and adapt it To meet the changing demands, the renewal of the urban construction society is an important integral part of the development of urban planning, in order to create conditions for the normal production activity of the population through the consistent renovation of cities, meeting the constantly growing spiritual and material needs of man, improving working conditions, life and recreation of the population.

**Keywords:** City, reconstruction, modern alley, construction works, musical fountain, markets, memory park, landscape, housing, trade and consumer services, modern buildings.

O‘zbekistonning qator shaharlari, viloyat markazlarini keng miq‘yosda qayta qurilish ishlari olib borilmoqda. Eski shaharni qaytadan qurish hamda uni o‘zgaruvchi talablarga moslashtirish zaruriyati paydo bolmoqda Shaharni qayta qurish jamiyatini yangilash shaharsozlikni rivojlantirishning muhim ajralmas qismi bo‘lgan holda shaharlarni birin-ketin yangilash yo‘li bilan aholini normal ishlab chiqarish faoliyati uchun sharoit yaratishni, insonning doimiy o‘sib boruvchi ma‘naviy va moddiy talablarini qondirishni, aholini mehnat, turmush va dam olish sharoitlarini tubdan yaxshilash o‘zining maqsadi qilib belgilagan.

Shaharni qayta qurish- deganda mavjud shaharlarni rejalashtirish va qurishni takomillashtirish hamda rivojlantirish bo‘yicha tadbirlar majmuasi tushuniladi. Bundan ko‘rinadiki, qayta qurish shahar hududini rivojlantirishga imkon beradi. Yuqorida aytib o‘tilgan tadbirlarni amalga oshirish vaqt bo‘yicha uzluksiz oquvchi Shaharlarni kenglik – rejalashtirishni tashkil etishni, qurilishlar va obodonlashtirish ni takomillashtirib borish ni ko‘zda tutadi<sup>1</sup> [Babajanov A.R va boshqalar 2019yil 340 b.] Jizzax viloyatidagi shaharlarning xam qayta qurish, qiyofasini o‘zgartirish, tabiiy iqlim sharoitiga mos va o‘ziga xos landshaft ko‘rinishga ega bo‘lgan binolarni barpo etish shaharsozlik madaniyati rivojida muhim ahamiyatga ega. Jizzax viloyati iqlimi, tabiati, aholi joylashuvi xususiyatlari shaharlardagi qurilish ishlarini olib borishda asosiy omil bo‘ldi. Eng muhimi, shaharlar qurilishida aholi uchun qulaylik yaratish bosh mezonga aylandi.

Mustaqillik arafasida kapital qurilishda, ayniqsa, og‘ir ahvol vujudga keldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Birinchi Islom Karimov asarida ta’kidlaganlaridek, “1990-yilda respublikadachalalqurilishlarningqiymati 5,7 milliard so‘mga etdi. Bu kapitalmablag‘ningyillikrejasidan ham ko‘proqdir. Faqat

---

<sup>1</sup> Babajanov A.R., Muqumov A.M., Sharipov S.R. Hududlarni rivojlantirish(o‘quv qo‘llanma). T: 2019.340-6.

1989-yilning o'zidagina 73 ta yirik ob'ekt va ishlab chiqarish quvvatlari bitkazilmay qoldi, bu esa 200 million so'mlik milliy daromad yo'qotildi, demakdir. Qariyb 200 ta eng muhim ishlab chiqarish qurilishlari bitmay chala qoldi, bir million kvadrat metrdan ko'proq uy-joy, 9 ming o'ringa mo'ljallangan maktabgacha tarbiya muassasasi foydalanishga topshirilmadi"

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab respublika rahabariyati qurilish ishlariga ham alohida e'tibor qarata boshladi. 1991-yil viloyatda qurilishga 249,2 million so'm davlat mablag'i ajratilib, bu esa qurilishda ajratilgan mablag'ning 59,0 foizini tashkil etgan. 1994-yilda qurilishda ishlatilgan 82,1 million so'mdan atigi 20,2 million so'm davlat mablag'i hisobiga bajarilgan, bu umumiy qurilishda ishlatilgan mablag'ning 24,6%ini tashkil etgan. ya'ni, yildan-yilga qurilishda davlat tomonidan ajratilgan mablag' kamayib, korxonalar va xo'jaliklar, xususiylar mablag'ga hamda bank krediti hisobiga qurilishni amalga oshirish ortib borgan. Jizzax shahrida 1993 yilda 10 dan ortiq yakka tartibdagi uy-joy massivlari qurilgan. Alisher Navoiy, Uchariq, Hamid Olimjon, Nazir Safarov, Oqqo'rg'onlik massivlari shular jumlasidandir. Masalan, Paypoq to'quv fabrikasi yonida qurilgan Alisher Navoiy massivining umumiy maydoni 102 gektar bo'lib, u to'rt guruhga bo'lingan. Shaxsiylar uy-joylar, sport inshootlari maydoni, 2 ta maktab va 2 ta bolalar bog'chasi uchun ajratilgan maydon hamda ijtimoiylar va madaniylar markazlar maydonlariga bo'lingan. Bu uylar asosan 1-2 qavatli bo'lib, qurilishda ko'proq mahalliy materiallar ishlatilgan.

Ammo, uy-joylarni qurib foydalanishga topshirish ancha achinarli ahvolda edi. 1992 yilda bu sohadagi yillik reja bor yo'g'i 64 foizga bajarildi. Viloyat bo'yicha topshirilmay qolgan uy-joylar 117 ming kv.metrni, maktablar 1192 o'rinni, bolalar bog'chalari 510 o'rinni tashkil etdi. Avariya holatidagi maktablar o'rniga yangi bino qurish ishlari juda sust olib borilgan.

1993 yilda Jizzax shahridagi 11 mingdan ziyod turar joy xonadonlarning barchasi aholiga xususiylar mulk qilib berildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ba'zi qurilish ob'ektlari tegishli tashkilotlar nazoratisiz qurila boshlagan. Jumladan, "Olmazor" bozori bosh rejasini tasdiqlanmasdan tartibsiz ravishda qurilish ishlari olib borilgan. Aslida esa 1992 yil 15 dekabrda viloyat hokimligi qarori bilan arxitektura qurilishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etilgan, lekin keyinchalik u tarqatib yuborilgan. Ushbu bozordagi savdo do'konlari ularning egalari tomonidan qurilgan hamda qurilish qoidalariga amal qilmasdan (zilzilaga chidamliligi, fundamentlar armaturasiz) qurilgan. Xuddi shunday holatni "Ko'kat bozor" qurilishida ham ko'rish mumkin edi. Mazkur bozorlar bosh rejasini ishlab chiqilmaganligi sababli Toshkent va Hamroqul Nosirov ko'chalari, bir tomonlamalik yo'l, piyodalar uchun trotuar, avtobekatlar, ko'kalamzorlashtirish ishlari loyihalashtirilmagan.

Mustaqillik sharofati bilan Jizzax shahrining bosh rejasini qaytadan ishlanib,

zamonaviy inshootlar qurilishi, savdo majmualarining barpo etilishi koʻzda tutilgan. Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 4 dekabridagi “Shahar va shaharchalarning bosh rejalarini hamda qishloq fuqarolar yigʻinlari hududlarini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 286-sonli qarori<sup>2</sup> [Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 4 dekabridagi 286-sonli qarori] ga binoan viloyat shaharlari, tuman markazlari, ayniqsa, Jizzax shahrining qiyofasini tubdan oʻzgartirish boʻyicha bosh reja asosida ishlar olib borilayotganligi eʼtiborga molikdir. Markaziy koʻchalar kengaytirilib, turar joy binolari qad koʻtarmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov 2013 yilning 19 iyunida viloyatga tashrifi chogʻida bosh reja asosida amalga oshirilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlari bilan atroflicha tanishdi. Shuningdek, Jizzax shahrining bosh rejasida, albatta, aylanma xalqa yoʻlining qurilishi koʻzda tutilishi lozimligi xususida qimmatli maslahatlarini berdi.

Bugungi kunda viloyat markazida bunyodkorlik ishlari qizgʻin davom etmoqda. Bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan qurilish ishlari samarasi oʻlaroq viloyat markazi chet elning goʻzal shaharlaridan qolishmaydigan qiyofa kashf etishi shubhasizdir. Xususan, soʻnggi yillarda Jizzax shahrining Mustaqillik (sobiq Rasul Isayev), Buyuk Turon (eski nomlanishi Ubaydulla Toʻraqulov), Sharof Rashidov, Alisher Navoiy va Shifokorlar koʻchalarida katta bunyodkorlik ishlari bajarilmoqda. Koʻchalarning ikki tomonidagi pastqam uy va inshootlar oʻrnida bugungi kunda 2-3 qavatli goʻzal imoratlar qad rostlamoqda. “Koʻk bozor”ga kelib birlashadigan Toshkent koʻchasi, Bogʻdon, Alisher Navoiy koʻchalari 50 metrga kengaytirilib, ikki tomonlama qatnovni yoʻlga qoʻyish boʻyicha ishlar bajarilmoqda<sup>3</sup> [Ахмедов А., Адиллов У. Жиззах ҳақиқати. – 2014. - №1-2 ] .

Mustaqillik koʻchasining bir tomonida biri-birini takrorlamaydigan koʻp qavatli binolar, savdo shoxobchalari qad koʻtargan. “Eski shahar dehqon bozori” va “Eski shahar buyum bozori” ham zamonaviy meʼmoriy echimga ega ekanligi, xaridor hamda sotuvchi uchun qulay sharoit yaratib berilganligi bilan ajralib turadi. Ana shu koʻchadagi “Oybek” klinikasi, “Zilol” mahalla fuqarolar yigʻini idorasi va boshqa koʻrkam binolar ham bugungi kunda shahar koʻrkiga yarashib turibdi. Mustaqillik koʻchasidagi yoʻlning kengligi 50 metrni tashkil qilib, aynan shu koʻchada yoʻl osti yoʻli qurilgan<sup>4</sup>, [ Камолов Т. Жиззах гўзал шаҳарга айланади // Жиззах ҳақиқати. – 2014. - №16 ] mustaqillikning 23 yilligi bayrami arafasida foydalanishga topshirilgan. 2015 yil avgustida Jizzax shahrining Alisher Navoiy koʻchasida tijorat banklari mablagʻlari hisobidan qad rostlagan 5 ta koʻp qavatli

<sup>2</sup>Қаранг. Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 4 dekabridagi “Shahar va shaharchalarning bosh rejalarini hamda qishloq fuqarolar yigʻinlari hududlarini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 286-sonli qarori

<sup>3</sup>Ахмедов А., Адиллов У. Бугуни обод, эртаси нурафшон // Жиззах ҳақиқати. – 2014. - №1-2 (5414- 5415).

<sup>4</sup>Камолов Т. Жиззах гўзал шаҳарга айланади // Жиззах ҳақиқати. – 2014. - №16 (5429).

turar joy binolari foydalanishga topshirildi<sup>5</sup>. [Камолов Т. Янги уйлар қувончи // Жиззах ҳақиқати. – 2015. - №65]

Loyiha-smeta hujjatlariga ko'ra, Jizzax shahrining markaziy qismidagi "Sug'diyona" stadioni o'rnida 11.650 tomoshabinga mo'ljallangan sport majmuasi qurilishining qiymati 56 mlrd so'mni tashkil etdi. Bugungi kunda sport majmuasida qurilish-montaj ishlari to'liq bajarilib, ob'ekt foydalanishga topshirildi. Sport majmuasi asosan mebel va inventarlar bilan jihozlangan sport arenasi, ma'muriy bino, sport zal va yopiq suzish havzasi, nazorat o'tkazish punktlari, tashqi to'siq, tashqi muxandislik tarmoqlari, suv qudug'i, yo'lakchalar, sug'orish tarmoqlari, yoritish minoralari va favvoralar, minifutbol maydoni, tashqi yoritish chiroqlari, 2 sport sport zali va yopiq suzish havzasidan iboratdir.

"Mustaqillik" ko'chasidagi 38 ta hamda "Navoiy" ko'chasida 6 ta ko'p qavatli uylarda qurilish ishlari olib borilib, bugungi kunda 65,1 mlrd so'mdan ortiqroq qurilish ishlari amalga oshirildi.

Yo'l mintaqasiga (qizil chiziqqa) tushgan "Mustaqillik" ko'chasidagi 25 ta va "Navoiy" ko'chasidagi 146 ta turar joy hamda shahar hududida 210 ta noturar joy binolari buzildi. Ularning o'rniga yangi zamonaviy ko'rinishdagi ko'p qavatli uy-joylar qurilmoqda. Buzilishga tushgan jami 249 nafar fuqarolarga uy-joylar uchun 18,5 mlrd so'mlik kompensatsiya pullari to'langan. Yangi uylar qurish uchun viloyatdagi nufuzli 8 ta tijorat banki tomonidan 15 yil muddatga kreditlar ajratilmoqda. 3 qavatli uylarning birinchi qavatida asosan savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalarini joylashtirish rejalashtirilgan.

2014 yilda Jizzax shahrida 1991 yilgacha qurilgan 15 ta uy mukammal, 120 ta uy joriy ta'mirlandi<sup>6</sup>. [Камолов Т. Вилоят фаолларининг йиғилиши // Жиззах ҳақиқати. – 2014. - №92] 2015 yil mustaqillik bayrami arafasida Jizzax shahrida 10 gektar maydonni egallagan zamonaviy xiyobon to'liq foydalanishga topshiriladi. Unda musiqali favvora, salqin ichimliklar, muzqaymoq sotadigan xizmat ko'rsatish shoxobchalari, bolalar uchun turli attarksionlar dam oluvchilarning ixtiyoridadir. Bu hiyobon qurilishi 2015 yil 14 martida boshlanib, shu yilning 15 iyuniga kelib ishga tushirildi. Yangi xiyobon qurilishisha 3 milliard so'mlik byudjet mablag'i sarflangan. Xiyobondagi musiqali favvoraning bo'yi 30, eni 15 metrni tashkil etib, 25 metr yuqoriga suv purkash qudratiga ega. Oqshomlari bu erda 2-2,5 ming aholi dam olib, hordiq chiqarmoqda. Hozirga qadar Jizzax shahrida ana shunday 21 ta istirohat bog'lari shahar aholisi hamda uning mehmonlari ixtiyoriga topshirilgan<sup>7</sup>. [Исмоилов М. Обод манзилга айланаётган шаҳар // Жиззах ҳақиқати. – 2015. - №70]

2015 yilda Investitsiya dasturi asosida viloyatda sog'liqni saqlash tizimidagi 8 ta shifo maskanida, xalq ta'limi tizimidagi 14 ta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimidagi 9 ta o'quv muassasalarida jami 33,9 milliard so'mlik kapital

<sup>5</sup>Камолов Т. Янги уйлар қувончи // Жиззах ҳақиқати. – 2015. - №65 (5585).

<sup>6</sup>Камолов Т. Вилоят фаолларининг йиғилиши // Жиззах ҳақиқати. – 2014. - №92 (5505).

<sup>7</sup>Исмоилов М. Обод манзилга айланаётган шаҳар // Жиззах ҳақиқати. – 2015. - №70 (5590).



rekonstruksiya va ta'mirlash ishlari olib borildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 2 martdagi farmoniga asosan 9-may Xotira va qadrlash kuni deb e'lon kilinib, respublika poytaxtida va barcha viloyatlar markazida Xotira maydonlari tashkil etildi. Jizzax shahrida barpo etilgan xotira bog'i va undagi motamsaro ona haykali 2016 yilda qayta qurildi va yangidan ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Jizzax shahridagi Xotira bog'idagi qurilish ishlari 2016 yilning 25 yanvarida "Jizzax tadqiqot" mas'uliyati cheklangan jamiyati loyiha smeta hujjatlari asosida boshlanib, mazkur jamiyat quruvchilari tomonidan amalga oshirildi. Bu erda 2 ta ayvon qurilib, unga Ikkinchi jahon urushida halok bo'lganlarning ismlari yozilgan "Xotira kitobi" o'rnatildi. Bundan tashqari kirish darvozalari ta'mirlandi. 800 metr 2 joyga bruschatka beton qoplamalari, 1200 metr<sup>2</sup> joyga granit tabiiy toshi bilan pardozlash ishlari bajarildi. 660 metr joy temir panjaralar bilan uraldi. Bu ishlar uchun esa 6 milliard so'mga yaqin pul mablag'i ajratildi. 4,5 gektarlik er maydonida esa obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari bajarilib, 2 ming tupga yaqin kashtan, qrim qarag'ayi, oq qayin, lola kabi manzarali daraxt ko'chatlari o'tkazildi. Hududlarda adliya tizimidagi davlat notarial idoralari uchun zamonaviy binolar qurilib, foydalanishga topshirilishi viloyat fuqarolariga malakali yuridik xizmat ko'rsatish sifati ham rivojlanib borishiga yordam bermoqda. Xususan, 2015 dekabrda Jizzax shahar 1-son davlat notarial idorasi binosi bunyod etilib, bino qurilishiga 1 milliard so'mga yaqin davlat mablag'lari sarflandi<sup>8</sup>. [Маликов М. Бунёдкорлик – давр талаби 56 б.] Mustaqillikka erishgan har kanday davlat tarixiy nomlarga hurmat bilan qarash, bu boradagi yo'qolgan nomlarni tiklash va tartibga solish ishini o'z qo'liga olishi kerak. Bunda yirik shaharlarning nomlarinigina emas, balki o'rta va kichik shaharlar, shaharchalar, qishloklar nomlarini ham qayta tiklash zarurligi o'z-o'zidan ayon, chunki mustaqillik yo'liga kirgan davlat uchun toponimika masalasi madaniy va ilmiy masalagina emas, balki siyosiy masala hamdir.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ш.М.Мирзиёев. "Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга курашамиз". Тошкент "Ўзбекистон" НМИУ 2017 йил. 345.
2. Эркин иқтисодий зоналар тўғрисидаги қонун. 1996 йил 25 апрель.
3. А.Абдусаматов "Янада юксак марралар сари". Жиззах хақиқати. 2015 й. №70 (5590)
4. Бекназаров Т. Введено в строй новое предприятие. Джиззакская правда 2016. 9 январь №4.
5. . Latipov D.V, Mirzaev M.K. O'zbekiston Respublikasi shaharsozligi asoslari . T.2000.
6. 3.30.Tursunov H.K.,Mirzaev M.K. "Shaharsozlik iqtisodiyoti asoslari" T.2002y.

<sup>8</sup>Маликов М. Бунёдкорлик – даврталаби56б.

